




№ 1 | МАРТ | 2023

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, I-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-I

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-I

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВА | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-1>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали Санъатшунослик факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

NAGMETOVA Gulzar Bulatbayevna*Nukus davlat pedagogika instituti**magistranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.7779037>

MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI

ANNOTATSIYA

Maqolada musiqa madaniyati darslari jarayonida, musiqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik, musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada musiqa tovushlarining baland-pastlik munosabatlari tuzilmalarida, bolalar diqqatini musiqa ifoda vositalari kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilarini o'rgatish, ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish, ko'rgazmali metodi, amaliy metod, taqqoslash metodi, og'zaki metod va shuningdek musiqa savodi darsining ta'limiy vazifasini kuylash va tinglashga doir asarlarini savodli tahlil qilish, ular o'quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, o'quvchi, o'qituvchi, metod, musiqa asarlari, musiqa savodi, kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgi.

ХАРАКТЕРИСТИКА ЗАНЯТИЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРОЙ

АННОТАЦИЯ

В статье в ходе уроков музыкальной культуры, в ходе самостоятельной уроковой деятельности по музыкальной грамоте, грамоте, художественному изучению и исполнению музыкальных произведений, при этом звук музыки имеет первичный выразительный потенциал, взаимосвязь между высотой звука и высотой тона. музыкальных звуков в звукорядных построениях внимание детей обращено на средства музыкальной выразительности, мелодию, регистр, темп, ритм, тренировку динамического характера. знание правил настройки и пения, обучение правилам игры в ладоши и игры на музыкальных инструментах, демонстрационный метод, практический метод, метод сравнения, устный метод а также воспитательное задание класса музыкальной грамоты Литературный анализ произведений по пению и аудированию, информация о том, как они учат студентов на основе впечатлений и музыкального опыта из повседневной жизни.

Ключевые слова: музыкальная культура, ученик, учитель, метод, музыкальные произведения, музыкальная грамотность, мелодия, регистр, темп, ритм, динамический признак.

CHARACTERISTICS OF MUSICAL CULTURE CLASSES

ANNOTATION

In the article, in the course of music culture lessons, in the course of music literacy independent lesson activities, literacy, artistic study and performance of musical works, while the sound of music has the primary expressive potential, the relationship between the pitch and pitch of musical sounds in the scale structures, the children's attention is drawn to the means of musical expression, melody, register, tempo, rhythm, dynamic character training. knowledge of the rules of tuning and singing, teaching to follow the rules of clapping and playing musical instruments, demonstration method, practical method, comparison method, oral method and also the educational task of the music literacy class Literary analysis of works on singing and listening, information about how they teach students based on impressions and musical experiences from everyday life.

Key words: musical culture, student, teacher, method, musical works, musical literacy, melody, register, tempo, rhythm, dynamic attribute.

Musiqa madaniyatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi tufayli insonda muayyan musiqiy bilim, tushuncha, malaka va ko'nikmalar shakllanib, ular o'z navbatida shaxsning musiqiy – ma'naviy dunyoqarashini tarkib toptiradi. Shaxsning musiqa madaniyati- qobiliyat, bilim, malaka, ko'nikma, musiqiy asarlarini baholay olish singari sifatlar majmuida namoyon bo'ladi, ma'naviy yuksalish omili bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, tarbiyaning ushbu turini tarkib toptirishning eng avvalo oiladan boshlamoq maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik bu jarayon o'rta maktab, o'quv-tarbiyaning o'rta maxsus va oliy bosqichlarida takomillashtirib boriladi. Albatta, maktabda musiqani o'qitish metodikasi fani musiqiy madaniyatni tarkib toptirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur kurs bolalar bilan musiqiy ishlar sohasida o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ham bildiradi. Shu narsa aniqki, mustahkam ilmiy asosga ega, keng amaliyotga qo'llanib, sinab ko'rilgan va shu bilan birgalikda doimo takomillashib boradigan metodikagina samarali hisoblanadi.

Musiqa o'qituvchisi har bir sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini yaxshi bilmog'i lozim. Ma'lumki "metodika"- bu pedagogikaning shunday qismidirki, didaktik prinsiplar asosida qanday metod, usul yordamida o'quv-tarbiyaviy jarayon maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilib uning umumiy hamda alohida vazifalari hal etiladi. Masalan, qanday usulda, qaysi yo'l bilan musiqaning tarbiyaviy ta'siriga erishmoq o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, kichik va o'rta sinf o'quvchilarida musiqa tinglashni tashkil etish, o'quvchilarni faol idrok etish malakasiga erishish masalalari hal etiladi. Shuning bilan birga metodika alohida masalalarni ham yoritadi. Musiqa o'qitish metodikasida tarbiya jarayoni har qanday ijtimoiy faoliyat singari tizimli va ilmiy boshqaruvni talab etishini alohida ta'kidlaydi.

Musiqa - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (mas, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rqov va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli - epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir.

Musiqaning mazmuni - shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, xissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir. Nutq, tovushli signal berish va boshqa tovushli-ma'noli jarayonlar singari, musiqa ham muayyan ma'lumotlarni sadolar vositasida ifodalash imkoniyatiga ega. Jumladan, tovushlarning baland-pastligi, ingichka yo'g'onligi, uzun qisqaligi, kuchliligi va boshqa vositalar yordamida odamning ichki holatini ifodalash imkoniyati jihatidan musiqa nutqqa (nutq intonatsiyalariga) o'xshaydi. Ammo, san'at turi sifatida musiqa faqat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar (mas, badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, musiqa tovushlarining muayyan musiqa tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutqdan farq qiladi.

Har bir alohida olingan musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada musiqa tovushlarining baland-pastlik munosabatlari lad tuzilmalarida, muvaqqat nisbatlari esa, musiqiy ritm va metrda o'z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari musiqa madaniyati, jumladan, o'zbek musiqa folklori, an'anaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi diatonika tashkil etadi.

Musiqa madaniyati darslari jarayonida, musiqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Musiqa savodi mazmuni o'quvchilarni tobora shakllantiradi va ulami doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. Shunday qilib musiqa savodi darsining ta'limiy vazifasini bajaradi, musiqa savodi (faoliyatining) asosiy negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo'yicha berilgan chorak mavzulari kuylash va tinglashga doir asarlarini savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatiladi. Musiqa savodi quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi.

1. Bolalar diqqatini musiqa ifoda vositalari, kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilar o'rgatish.

2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish.

3. Musiqa ijodkorlari: «kompozitor», «ijrochi», «tinglovchi» mavzuning mazmuni va o'rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma'lumotlar, musiqa savodi orqali amalga oshiriladi [1, B.42].

Musiqa tinglash, musiqa madaniyati darslarining asosiy omili hisoblanadi. Chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning xarakteri, mazmuni ongli ravishda o'zlashtiriladi. O'quvchilarni hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma'lum, his – tuyg'u va fikr aks ettiriladi. Biz musiqa darsining qaysi faoliyatini olmaylik u avval musiqani tinglab, musiqani idrok etishdan boshlanadi va o'quvchilarning ruhiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun musiqa tinglash darsining yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanadi. Darsda tinglanadigan har bir musiqiy asar, badiiy - g'oyaviy mazmuni jihatdan chorak dars mazmuniga bogliq bo'ladi va ilmiylik davomiylik, izchillik tamoyillariga amal qiladi. Musiqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiborini musiqiy asarga jalb qilish va o'qituvchining kirish so'zi.

2. O'qituvchi ijrosida yoki magnit yozuvda asarni tinglash.

3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy va badiiy g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish.

4. Asarni bir butunligicha qayta tinglash va asar haqida o'quvchilarni umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Musiqa tinglash metodlari:

1. *Ko'rgazmali metodi*: - o'qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalari orqali bolalar cholg'u asbobi, torli, ritimli harakatlar.

2. *Amaliy metod*: - o'quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularni hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.

3. *Taqqoslash metodi*: - bunda asarlarning janrlari ijrochilik xususiyatlari templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o'stirishga yordam beradi. Musiqa darsini 5ta faoliyati turlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish) uzviy bog'lab boriladi va mantiqiy bir butunlikka erishish maqsadga muvofiqdir.

4. *Qg'zaki metodlar*: - o'qituvchi tinglanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga bog'lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualliflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli hikoya qilib beradi [2, B.39].

Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar quyidagi tartibda o'tkaziladi: birinchi qatorga o'qituvchini ovozigacha tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tkaziladi. Bunda ikkinchi qatoridagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofda qolganlar eshitib ularning ovozariga ergashib, chiroyli, kuylashga harakat qiladilar.

Shu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan, darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tariqa, hamma o'quvchilarni musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quv, bir xilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

Barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish mustaqil respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Shunday ekan, barcha fanlar qatori musiqiy fanlarni o'qitish ishini yanada yaxshilash, uning samaradorligini oshirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanmoq kerak. Ayniqsa, bunday imkoniyatlarning qaysi biridan yaxshirok natija chiqarish ustida bosh qotirish lozim. Bizga ma'lumki, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati darsi faqatgina o'quvchilarning bilim olish va dunyoqarashi kengayishi zamiriga, balki ma'lum ma'noda ularning qobiliyatlari o'sishi, ijodkorlik va ijro malakalarining oshirilishini ham taqozo etadi. Chunki, bu darslar ko'proq amaliy faoliyat, ya'ni jonli harakatlar asosida o'qitiladi. Bu esa ta'lim beruvchi pedagogdan faqatgina chuqur musiqiy bilim va keng dunyoqarashni emas, balki yuksak ijrochilik mahoratini ham talab qiladi. O'qituvchining shaxsan ijro etgan har bir musiqiy asari o'quvchilar uchun ko'rgazmalilik vazifasini bajaradi. Dars jarayonida o'quvchilar pedagogdan ovoz ishlatish texnikasi, milliy oxanglar xosil qilish, so'zlarni burro talaffuz qilish, intonatsiya va boshqa qo'shiqchilikning o'ziga xos sir-sinoatlarini o'rganadilar.

Musiqa bolalarni aqliy hamda ahloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi.

O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- xat va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rish, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi did bilan namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektlarini tuzib yangi texnologiyani qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishini talab etiladi [1, B.14].

Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir. Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi. U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan, vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

- Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqagina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.

- Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda, uning yangi-yangi badiiy qirralarini his etamiz.

- Musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Hullas musiqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Shuningdek musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Ma'lumki, har bir davr yoki zamon o'z taraqqiyot darajasi negizida o'zining ma'naviy dunyosiga ega bo'ladi. Jamiyatning ehtiyojiga xos talabi, didiga mos dunyoqarashlari zamin onasiga mutanosib holda shakllanadi. Istiqlolimiz tufayli shakllangan yangicha fikrlash, munosabatlar va dunyoqarashlar o'zimizga xos bo'lgan milliy istiqlol g'oyasiga asos soldi. Bu esa kelajagi buyuk davlatning ma'naviy barkamolligidan darakdir. Bugungi kunning asosiy talablari - har bir sohada mustaqil bo'lish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va jahon andazalari doirasida faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Buni biz musiqa san'atimizning tez rivoj topgani va ommaviy musiqiy shakllarning xalqimiz orasida keng tarqalganida ko'ramiz [3, B.56].

O'qitish usullarini tanlashda hammadan avval o'quv materialining mazmunini tahlil qilish va faol usullardan ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari, ularning idrok etish qobiliyatlari, hayotiy tajribasi, haqiqiy faoliyatga moslasha olishligi muhimdir. O'qitish axborotli- rivojlanuvchi usullariga o'quvchilar o'quv axborotini tayyor ko'rinishda yoki o'qituvchining bayon qilinishi oladigan usullari:

- ma'ruza;
- hikoya qilish;
- tushuntirish;
- suhbat;
- kitob;
- mustaqil ish kiradi.

Pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va aniq maqsad, loyiha asosida tizimli olib borilishiga erishish [4, B.87].

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o'quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi [5, B.153].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kishining musiqa madaniyati nafaqat maktab ta'sirida shakllanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiy munosabatlar tizimi katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga tabiiyki, aynan maktab o'quvchilarining musiqiy qiziqish va qobiliyatlarining tarkib topishida, ularda musiqa madaniyati asoslarini shakllanishida maktab hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga, uning metodlariga tayanadi. Metodlar ishlanmasi quyidagi muammolar bilan bog'liq: ularning musiqa tarbiyasi mazmuni bilan o'zaro bog'liqligi, o'quvchilar ijodiy va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishi, musiqiy xotira va ovoz, musiqa idrokining yosh hamda individual xususiyatlari rivojlanishidagi turli musiqiy faoliyatlarning imkoniyatlari va boshqalar. Jumladan, musiqa darslari, musiqadan fakultativ mashg'ulotlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, to'garaklar, bayramlar, va h.k. Maktabda musiqani o'qitish metodikasi fani o'z mohiyati va mazmuni jihatidan bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Musiqa ta'limi yangilanish yo'liga kirayotgan ekan, bu fanning ahamiyati yanada oshib borishi tabiiydir.

IQTIBOSLAR

1. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. Toshkent. 2014
2. G. Sharipova, G‘. Najmetdinov, Z. Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Andijon. 2020
3. S.Begmatov, D.Karimova, Q.Mamirov. 6-sinf uchun darslik. Musiqa. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
4. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar - Do‘stona muhit yaratish omili. - Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 - yil.
5. Yo‘ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, Fan, 2001 - yil.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, I-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-I

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-I

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz